

VIII. CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil yanvar-dekabr dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026- yil 1- yanvar holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 7361 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 151 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 7 210 tani tashkil qildi.


2025- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 42 194,6 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 112,1 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 5 856,5 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 169,5%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 33 301,5 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,5%), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 3 036,7 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 108,4 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (%da)



Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
(ulushi %da)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026- yil 1- yanvar holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 4 306 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 29 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 4 277 tani tashkil qildi. Viloyat bo'yicha 2025- yilning yanvar-dekabr oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 31 763,2 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 12,4 % ga o'sdi.


Kichik biznes subektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 30 637,4 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,7 % ga to'g'ri keldi Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 96,5 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Marg'ilon shahar (6,8 m.) va Bag'dod (5,3 m.), tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (%da)




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026- yil 1- yanvar holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 945 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 5 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 940 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-dekabr oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 27 407,4 mlrd so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 114,1 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 83,3 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (%da)



IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi – 2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

Chop etishga masul: Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi	Bo'lim boshlig'i: Tel: +99873-241-97-68	Ijrochi: N.Mahmudova Tel: +99873-241-97-68	Manzil: Farg'ona sh., Oq'yol ko'chasi, 104-a
---	---	--	--